

Maqsud Qoriyev (1926-2010)



Maqsud Qoriyev (1926-2010)



Maqsud Qoriyev (1926.1.8, Toshkent, 2010) — yozuvchi va jurnalist. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi (1968). Toshkent yuridik institutini tugatgan. Yuridik fanlari nomzodi, dotsent (1994).

«Toshkent haqqati» gazetasida muharrir o'rinbosari, bosh muharrir (1954— 63), «Sovet O'zbekistoni» gazetasi (1964-84), «Mushtum» jurnalida bosh muharrir (1984—92) bo'lib ishlagan.

Jurnalistik faoliyati 50-yillarning boshlari, adabiy faoliyati esa 60-yillarning 2-yarmida kichik hikoyalar yozish bilan boshlangan. Maqsud Qoriyev «Oydin kechalar» (1968), «Jiyda gullaganda» (1970), «Oy tutilgan kecha» (1971). «Qiz uzatib borganda» (1972), «Afrosiyob go'zali» (1974). «Turnalar baland uchadi» (1976) qissa va hikoyalar to'plamlarida yosh zamondoshlari hayotiga murojaat etib, ular hayoti va ruhiy olamida kechayotgan o'zgarishlarni tasvirlashga alohida ahamiyat bergan.

Maqsud Qoriyevning keyingi ijodida tarixiy o'tmish mavzui ustuvorlik qiladi: «Spitamen» (1985), «Ibn Sino» (1995). «G'aznaviylar» kabi tarixiy romanlar, «Ibn Sinoning bolaligi» (2002) qissasi kitobini yozgan.

Maqsud Qoriyev, shuningdek, «Davlat va huquq nazariyasi» darsligi mualliflaridan biri.

Maqsud Qoriyevning lirik qissalari asosija «Mirzo va Lola» telespektakli, «Qaldirg'ochlar bahorda keladi» (rejissyor H.Ahmar). «Qiz uzatib borganda» (rejissyor U.Nazarov) badiiy filmlari yaratilgan.

Maqsud Qoriyev «Shuhrat» medali (1996) va «El-yurt hurmati» (1998) ordeni bilan taqdirlangan.

2023-09-13 16:41:53